

## **BIRJA VA BIRJA FAOLIYATI**

*Xidirov Muzaffar Abdimo'minovich*

*Email: [zafarxakimov39@gmail.com](mailto:zafarxakimov39@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda birja va birja faoliyati to'g'risidagi tushunchalar keltirilgan hamda birinchi fond birjalar ajralib chiqdan davr haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Birja va birja faoliyati, fond birjasi, birinchi fond birjalari, fond birjalarini ro'yxatga olish*

**Kirish.** Fond birjasi – kimmatli kogozlarning nisbatan tashkil kilingan kismi bulib, u yerda birja a`zolarining oraga kirishi bilan oldi - sotdi bitimlari amalga oshadi

Fond kiymatlari – bu birjada sotishga ruxsat berilgan kimmatli kogozlari. Birjada kimmatli kogoznining uzi bulmasa xam operatsiyalar kilinadi.

Birinchi birja 1406 yil Gollandiyaning Bryuge shaxrida tashkil topgan. Antiverpen ( 1460), Lion (1462),Tuluza (1469), Amsterdam (1530), Parij (1563). Ular oldin xam tovar, xam fond birjasi edi, keyinchalik fond birjalari ajralib chikadi.

1608 yil Amsterdamda 1 chi, xozirgi zamon nukta nazaridagi fond birjasi tuzildi. U ancha paytgacha dunening savdo markazi bulib koldi. Xozirgi paytda duneda fond birjalari 160 dan oshib ketdi.

Birja sistemalari:

a) Monotsentristik, ya`ni mamlakatda birta, yeki asosan birta birja bor ( Angliya, Fransiya, Yaponiya),

b) Politsentristik, ya`ni kudrati jixatdan bir- biriga yakin bir necha ( odatda 2 – 4 ta birja bor. ( Kanada, Avstraliya),

v) Aralash sistema, (fakat AKShdagi sistema, ammo Rossiya xam shu yul bilan bormokda) bunda regionlarda bir necha kuchli birjalar bor, va juda kuchli markaziy ( AKShda Nyu-York, Rossiyada Moskva birjasi ) birja bor. Birjada

yuzlab, minglab ( masalan, London – 2800, Nyu-York- 1700) kompaniyalarnigina aksiyasi kotirovka kilinadi, 100 minglab mayda - chuydalar birjada kotirovka kilinmaydi, birjadan tashkaridagi bozorda oldi - sotdi kilinadi.

Fond birjalarining 2 modeli bor:

Anglo- amerika modeli – aksiyali jamiyatda kontrol paket kichik bulgani uchun kuplab aksiyalar sotiladi, kontrol paket kuldan - kulga utish extimoli juda katta.

Garbiy Yevropa modeli – konrol paketi katta, nisbatan kam aksiya sotiladi. Kontrol paket kuldan – kulga utish extimoli kichik. ( Uzbekiston uchun xam shu model rivojlansa ajab emas).

Dunyoning eng katta fond birjalari: London, Nyu-York, Tokio, Syurix, Bagam orollari, Singapur, Dubay. Kassa operatsiyalari – uni bajarish bitim tuzilgandan keyin sodir buladi. (AKShda, darrov tulashidan to 5 kungacha, Yaponiyada 1-14 kun, Shvetsariya – 1-5 kun).

Shoshilinch operatsiyalar - spekulyativ xarakterga ega, kup davlatlarda takiklangan. AKSH, Shvetsariyada anchaginga rivojlangan. Birja spekulyantlari aksiya kursining pasayishiga («Ayiklar») yeki usishiga («Bukalar») uynaydilar. Bitim odatda oyning oxirida tuzilishi kerak. Shunday spekulyantlar bulganki, 1 kunda ( 1987 yil Nyu-york «Kora seshanba» deb nom olgan birja kulashida) 1 mlrdga yakin boylikni yukotgan.

Birja operatsiyalarini amalga oshirishga topshirik shaklidagi operatsiyalar buladi. Uning 4 xili bor:

1) Joriy bozor kursi buyicha, topshirik ( ya`ni broker eng kulay momentda operatsiyani amalga oshiradi).

2) Limitli topshirik, ya`ni investorga kaysi kurs ma`kul bulsa kursatiladi;

3) Ostonali topshirik, ya`ni investorga xozircha usayetgan, ammo tushishi mumkin bulgan kursning minimumi belgilab kuyiladi;

4) Qisman yoki butunlay broker ixtiyeriga kuyilgan topshirik.

Birja kurslarini harakatini baholash uchun xamma banklarda акциялар kursning indeksi hisoblanadi. Xar bir aksiya ( obligatsiyaning) darajaviy baho

indeksi birjada kotirovka kilinadigan ushbu tUSDagi aksiyalar kurslarining yigindisi va aksiyalar nominaliga bo`linmasidan iborat. Keyinchalik bu darajaviy baho indekslar umumiy birja indeksi hisoblash uchun foydalaniladi.

Fond birjasi tushunchasi va fond birjasi to`g`risida qonunchilik

Birja bu bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli. U turli ko`rinishlarda bo`ladi:

- tovarlar birjasi (tovarlar bozori);
- fond birjasi (qimmatli qog`ozlar bozori);
- valyuta birjasi (valyuta bozori);
- mehnat birjasi («ishchi kuchi» oldi-sotdi bozori).

Fond birjasi – bu qimmatli qog`ozlar bilan oldi-sotdi muomalasini olib boradigan joy. Uning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- qimmatli qog`ozlar bir maromda muomalada bo`lishining zarur sharoitini ta`minlash;

- qimmatli qog`ozlar talab va taklifi o`rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya`ni bozor bahosini belgilash;

- qimmatli qog`ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;

- muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) narx-navo aniqlanishiga, indeksatsiyasi o`zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog`ozlar bilan hajmlari, kontraktlarning miqdoriga va boshqa ko`rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holati va uning rivojlanishiga doir taxminiy shartlarni e`lon qilish.

Dunyoda birinchi fond birjasi 1773 yilda Londonda brokerlar tomonidan qimmatli qog`ozlar bilan savdo qilish uchun tashkil etildi. U dastlab qirollikning pul almashtirish muassasasi (banki) binosining bir qismida ijaraga joylashadi. 1791 yilda filodelfiyada birinchi fond birjasi tashkil etilgan. 1792 yilda Nyu-York fond birjasi ochilgan. U birja hozirgi kungacha dunyoning eng yetakchi fond birjasi bo`lib kelyapti. Hozirgi davrda dunyoning 60 dan ziyod mamlakatlarida 200 ga yaqin fond birjalari mavjud. Fond birjalarining Xalqaro federatsiyasi bo`lib (Parijda), u qimmatli qog`ozlar bozorlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va aksionerlarning huquqlarini ta`minlaydi.

Fond birjalarini ro'yxatga olish

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi va u qimmatli qog'ozlar bilan faolit yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligidan Litsenziya oladi. Litsenziya olmagan tashkilot faoliyat yuritishga haqli emas. Birja faoliyati davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi:

- birjani va birja faoliyati ishtirokchilarini (yuridik shaxslarni) davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- litsenziyalar berish;

- birja faoliyatini soliq solish yo'li bilan boshqarish;

- birjaga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

Birjani davlat ro'yxatidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'tkazadi. Birja qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish esa «O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonunga muvofiq» amalga oshiriladi. Litsenziya olish uchun quyidagi hujjatlar tayyorlanadi:

- litsenziya olish uchun ariza;

- ta'sis shartnomasi;

- birja ustavi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma;

- birjadagi savdo qoidalari;

- ustav kapitalining 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorini o'tkazganlik haqida bank ma'lumotnomasi;

- savdo-sotiqni olib borish joyidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Birjaga litsenziya berish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Moliya fond birjalari va valyuta birjalarida mustaqil va mustaqil bo'lmagan tarkibiy bo'linma sifatida fond bo'linmalari tashkil etilishi mumkin. Fond bo'linma o'z faoliyatida fond birjalariga qo'yiladigan barcha talablarga amal qilishlari lozim.

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq yumushlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga amal qiladi.

Listing vak delisting tushunchasi. Ularning fond birjasiga daxldorligi.

Listing – bu qimmatli qog'ozlarni birjaga qo'yish, ya'ni joylashtirish. qimmatli qog'ozlar listingga qo'shilgan bo'lib, birja ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, ularni savdoga qo'yish mumkin. Birjaga qo'yilmaydigan aksiyalar nobirjaviy bozorda sotiladi.

Listing me'yoriy ko'rsatkichlari:

- qimmatli qog'ozlarning birjada oldi-sotdi qilinish sur'ati va soni;
- real aktivlar hajmi;
- qimmatli qog'ozlarning soni yoki aksiyalarning egalari(aksiyalar paketi) soni;
- jalb qilingan sarmoyaning umumiy qiymati;
- daromadlilik (rentabellik) darajasi;
- emitentning moliyaviy holati;

Delisting – bu qimmatli qog'ozlarni birjaning yoki kompaniyaning o'z qaroriga binoan ro'yxatdan chiqarilishi, ya'ni listing imtiyozlaridan tamomila mahrum bo'lishidir. Agar, masalan aksiyalarning o'zi qolmagan bo'lsa; firma qaytarib olsa yoki yangisiga almashtirgan bo'lsa; kompaniya aktivsiz qolsa yoki sinsa; aksiyalarni oshkora joylashtirish maqbul bo'lmagan kichik hajmga ega bo'lsa; kompaniya listing kelishuvini buzsa, bunday hollarda delisting qo'llaniladi.

**Xulosa:** Fond birjasi to'g'risidagi qonunchilik. O'zbekiston Respublikasida fond birjalarini tashkil etish va ular faoliyatini o'ziga xos jihatlari «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunda belgilab qo'yilganidek, fond birjasi qimmatli qog'ozlarning, risoladagidek aylanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradigan, ularning bozor narxlarini (qimmatli qog'ozlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradigan) aniqlab beradigan va bu narlar xususidagi axborotni tarqatadigan, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining yuksak darajadagi (professionalizm)ni qo'llab-quvvatlaydigan tashkilotdir.

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini amalga oshirishga doir ichki qoidalariga rioya qiladi. Fond birjasi ro'yxatdan o'tadi va O'zbekiston Respublikasi

qonunchiligiga binoan qimmatli qog'ozlar bilan birja faoliyatini yuritishga litsenziya oladi. qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar yuritish huquqi uchun ijozatnoma (litsenziya) olgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasining muassislari bo'lishi mumkin.

Yuridik, jismoniy shaxslar, shu jumladan brokerlik o'rnini sotib olgan xorijiy shaxslar fond birjasi (tovar-fond yoki valyuta birjasining fond bo'limi) a'zolari bo'lishi mumkin. Fond birjasi a'zolarining sonini birjani boshqaruvchi organlari, prokuratura va sud organlari, bulardagi mansabdor shaxslar va mutaxassislar fond birjasining a'zosi huquqiga ega emas. Fond birjasi a'zolarining savdoga kirishi uchun ularning qo'lida qimmatli qog'ozlar operatsiyasining litsenziyasi bo'lishi va ular investitsiya muassasasi maqomini olishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O 'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O 'zbekiston, 2017 y.
2. O 'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O 'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to 'g 'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O 'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil, 24 yanvar.
4. O 'zbekiston milliy ensiklopediyasi. O 'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 04.02.2014. Toshkent.
5. Красавина Л.Н.Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. —М.: «ФиС». 2001 г.
6. Платонова И.Н. Валютный рынок и валютное регулирование. -М.: «ФиС». 2004 г.
- 7.Бержанов С.А. Валютная система валютный рынок и валютные операции — Нукус. 1996
8. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o 'quv qo'llanma/Mualliflar: Xudoyberdiev Z.Y., Qahhorov, Z.Y., Umarov Z.A., Sohibov O.Q. - T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2013.
9. Tojiiyev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik-T:TDIU, 2009 y.